


E-ISSN 2181-1466



9 772181 146004

ISSN 2181-6875



9 772181 687004



**PUBLISHED  
SINCE 2000**  
(Online since 2020)

**PUBLISHED SIX  
TIMES A YEAR**

**2022/5(93)**

**CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:**  
**Khamidov O.Kh.**

Doctor of Economics, Professor

**EDITOR-IN-CHIEF:**

**Rasulov T.Kh.**

Doctor of Physics and Mathematics, Docent

**INTERNATIONAL EDITORIAL BOARD:**

**Kuzmichev N.D. (Russia)**

Doctor of Physics and Mathematics, Professor

**Danova M. (Bulgaria)**

Doctor of Philology, Professor

**Margianti SE. (Indonesia)**

Doctor of Economics, Professor

**Wünsch Th. (Germany)**

History of E.Europe Dr. of phil. habil, Professor

**Minin V.V. (Russia)**

Doctor of Chemical Sciences

**Tashkaraev R.A. (Kazakhstan)**

Doctor of Technical Sciences

**Muminov M.E. (Malaysia)**

Candidate of Physics and Mathematics

**Srivastava P.K. (India)**

American and English Literature PhD in English

**NATIONAL EDITORIAL BOARD:**

**Adizov B.R.**

Doctor of Pedagogical sciences, Professor  
(Deputy Editor-in-Chief)

**Abuzalova M.K.**

Doctor of Philological sciences, Professor

**Amonov M.R.**

Doctor of Technical sciences, Professor

**Barotov Sh.R.**

Doctor of Psychological sciences, Professor

**Bakoyeva M.K.**

Doctor of Philological sciences

**Buriyev S.B.**

Doctor of biological sciences, professor

**Djurayev D.R.**

Doctor of Physics and Mathematics, Professor

**Durdiyev D.K.**

Doctor of Physics and Mathematics, Professor

**Olimov Sh.Sh.**

Doctor of Pedagogical sciences, Professor

**Kakhkhorov S.K.**

Doctor of Pedagogical sciences, Professor

**Umarov B.B.**

Doctor of Chemical sciences, Professor

**Urayeva D.S.**

Doctor of Philological sciences, Professor

**Rashidov O.R.**

Doctor of Historical sciences, Docent

**Zaripov G.T.**

Candidate of technical sciences, Docent

**DEPUTY EDITORS-IN-CHIEF:**

**Navruz-zoda B.N.**

Doctor of Economics, Professor

**Turayev H.H.**

Doctor of Historical sciences, Professor

**Juraev N.K.**

Doctor of Political sciences, Professor

**Jumaev R.G.**

PhD in Political sciences, Docent

**Kuvvatova D.Kh.**

Doctor of Philological sciences, Professor

**Akhmedova Sh. N.**

Doctor of Philological sciences, Professor

**SCIENTIFIC REPORTS OF  
BUKHARA STATE  
UNIVERSITY**

\*\*\*

**BUXORO DAVLAT  
UNIVERSITETI ILMIY  
AXBOROTI**

\*\*\*

**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК  
БУХАРСКОГО  
ГОСУДАРСТВЕННОГО  
УНИВЕРСИТЕТА**

*The journal is published in the Bukhara  
Regional Department of Press and  
Information of the Press and Information  
Agency of Uzbekistan on August 24, 2020  
With registered certificate № 1103*

*The journal "Scientific reports of Bukhara  
state university" is included in the list of  
scientific publications recommended to  
publish the main scientific results of  
doctoral dissertations of the Higher  
Attestation Commission under the  
Cabinet of Ministers of the Republic of  
Uzbekistan on philology and physical and  
mathematical sciences.*

*The journal is intended for professors  
and teachers of higher educational  
institutions, senior researchers, students,  
scientific staff of scientific research  
institutions, teachers of academic  
lyceums, professional colleges, as well as  
researchers in general secondary  
education and various fields.*

**Founder: BUKHARA STATE  
UNIVERSITY**

**Executive secretary:**

**Sayfullaeva N.Z.**

**Doctor of Philosophy in  
Pedagogical Sciences (PhD)**

**Editor: Sobirova Z.R.**

**Department technicians:**

**Shirnova M.Sh.**

**Raximova S.M.**

## MUNDARIJA

<b>EXACT AND NATURAL SCIENCES</b>		
<b>Khujayev L.Kh.</b>	Nonlinear inverse problems for the system of poroelasticity equations	3
<b>Raxmatova N.J.</b>	Analysis of the 1D fractional diffusion equation with initial-boundary problem	16
<b>Hasanov I. G.</b>	Structural changes in agriculture: problems of modernization and ways of solvation	22
<b>LINGUISTICS</b>		
<b>Юлдашева Д.Н.</b>	Ўзбек тилининг софлигини сақлашга масъулмиз	27
<b>Irgasheva F.B.</b>	Lingvokulturologiyaning tarixiy bosqichlari va ijtimoiy-madaniy o'ziga xosliklari	31
<b>Norova M.F.</b>	Phonopragmatic characteristics of apocope	35
<b>Ruzieva M. Kh.</b>	Clinical features of the human linguistic system	38
<b>Sirojova Z.N.</b>	Ingliz tilidagi qo'shma gaplarda sintaktik munosabatlar sinkretizmining funksional tadqiqi	43
<b>Subxonova M.O.</b>	Lingvomadaniy birliklarning do'stlik haqidagi ingliz va o'zbek maqollarida ifodalanishi	48
<b>Sulaymanova M.Sh.</b>	The role of national values in teaching the native language	52
<b>Xamdamova G.X.</b>	Maqollarning nominativ-semantik xususiyatlari	57
<b>Xojiyeva M.Y.</b>	Shaxs semali leksemalar valentligi va so'z birikmasi	61
<b>Yokubova Sh.Y.</b>	Poetik nutqda metaforik birikmalar	65
<b>Зиёдуллаев А.Р.</b>	Эпонимларнинг мавзуй таснифи	70
<b>Наширова Ш.Б.</b>	Инглизча-ўзбекча ва ўзбекча-инглизча луғатлар учун кўп маъноли сўзларни танлаш мезонлари	75
<b>Рўзиев Я.Б.</b>	Ўзбек тилида биринчи тур ўзлаштирмалик ва гап	80
<b>Salixova N.N.</b>	Ingliz va o'zbek tillarida qo'llaniladigan undovlarning ma'no turlari	86
<b>Safarova M.Z.</b>	Etnonimiyaning o'rganilishi	90
<b>Тўраева Д.М.</b>	Пунктуацияда меъёр ва янгича аъёнларнинг пайдо бўлиши	98



*Safarova Maftuna Zoir qizi,*  
Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi  
[safarovamaftuna21@gmail.com](mailto:safarovamaftuna21@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada atoqli otlarga qiziqish o'tmishda ham bo'lganligi, kishi ismlari, joy nomlarining paydo bo'lishi, etnografiyasi, ma'no va etimologiyasi haqida tarixiy yozma manbalarda anchagina qiziqarli fikrlar mavjud ekanligi bayon etiladi. Atoqli ot materiallarini sistemali va izchil ravishda to'plash, ularni ilmiy asoslarda keng ko'lamda tahlil qilish o'zbek filologiyasida o'tgan asrning 60-yillaridan boshlandi. Bu boradagi ilk qadamlar H.Hasanov, T.Nafasov, E.Begmatovlarning tadqiqotlarida o'z ifodasini topdi. Keyingi yillarda o'zbek nomshunosligi, ayniqsa, uning toponimika, antroponomimika, etnonimika sohalari jadal rivojlandi. Endilikda o'zbek antroponomimikalarining materiallari qoniqarli ravishda to'plangani va tadqiq qilingani, deyarli barcha viloyatlar, bir qator tumanlar toponimiyasi monografik tarzda o'rganilganini qayd etish mumkin. Bulardan tashqari, ushbu maqolada o'zbek etnonimiyasini ilmiy asosda o'rganish davrlariga ham alohida to'xtalib o'tiladi.

**Kalit so'zlar:** atoqli ot, etnonimiya, antroponomimika, toponimika, qavm, qabila, elat, millat, urug', xalq, arab manbalari, "Shajarayi turk", uyg'ur, qarluq, nayman.

**Abstract.** In this article, it is stated that the interest in famous names existed in the past, there are many interesting ideas about the emergence of personal names, place names, ethnography, meaning and etymology in historical written sources. Systematic and consistent collection of well-known noun materials and their extensive analysis on a scientific basis began in Uzbek philology in the 60s of the last century. The first steps in this regard were expressed in the researches of H. Hasanov, T. Nafasov, E. Begmatov. In the following years, Uzbek nomenclature, especially its fields of toponymy, anthroponymy, ethnonymy, developed rapidly. It can be noted that the materials of Uzbek anthroponyms have been satisfactorily collected and researched, and the toponymy of almost all regions and a number of districts has been monographically studied. In addition to these, this article also focuses on the periods of scientific study of Uzbek ethnonyms.

**Keywords:** noun, ethnonym, anthroponymy, toponymy, people, tribe, people, nation, clan, people, Arabic sources, "Shajarayi Turk", Uyghur, Qarluq, Naiman.

**Аннотация.** В данной статье констатируется, что интерес к известным именам существовал в прошлом, существует множество интересных представлений о возникновении личных имён, топонимов, этнографии, значении и этимологии в исторических письменных источниках. Систематический и последовательный сбор общеизвестных именных материалов и их обширный анализ на научной основе начались в узбекской филологии в 60-х годах прошлого века. Первые шаги в этом направлении выразились в исследованиях Х. Хасанова, Т. Нафасова, Э.Бегматова. В последующие годы узбекская номенклатура, особенно её области топонимии, антропонимии, этнонимии, быстро развивалась. Можно отметить, что удовлетворительно собраны и исследованы материалы узбекских антропонимов, монографически изучена топонимия практически всех областей и ряда районов. Помимо них, в данной статье также рассматриваются периоды научного изучения узбекских этнонимов.

**Ключевые слова:** имя существительное, этноним, антропонимия, топонимия, народ, племя, народ, нация, клан, арабские источники, «Шажарайский тюрк», уйгур, карлук, найман.

**Kirish.** Insoniyat azal-azaldan o'zi va atrofidagi narsa-hodisalarni bir-biridan farqlash uchun alohida nom bilan atay boshlaganligining isbotini qabila va urug'lariga atab qo'yilgan hamda bugungi kungacha tilda yashab kelayotgan etnonimlarda yaqqol ko'rish mumkin.

Insonlarning biologik jihatdan bir butun bo'lishi umumiy sotsiologik qonunlar asosida taraqqiy etib, son-sanoqsiz guruhlarga, to'plarga bo'lindi. Kishilar urug', qabila, elat, xalq, millat kabi uyushmalarga birlashib jamiyatda yashaydi hamda ijtimoiy-foydali mehnat bilan shug'ullanadi. Eng qadimdan XX asrgacha o'zbeklar tarkibiga kirgan barlos, nayman, saroy, qo'ng'irok kabi urug' va qabilalar, o'z navbatida, bir qancha to'p, tira, shox, avlod, qavm singari tarmoqlarga bo'linadi. O'zbek elati turli urug' va qabilalardan ilk o'rta asrlarda shakllana boshlagan... To'p, to'par, shox, ticha jamoa, toifa, avlod, qavm, urug', qabila,

*elat, xalq, millat* nomlari *etnonimlar* deyiladi. Etnonim yunoncha *etnos* – “xalq” va *onim* – “nom” soʻzlaridan tarkib topgan etnonimlar majmui *etnonimiya* deyiladi [5, 12].

**Asosiy qism.** Asli nomlar tarixiga eʼtibor qaratadigan boʻlsak, ularning aksariyati xalq ijodi mahsuli ekanligiga guvoh boʻlamiz. Joy nomlari dabdurdan paydo boʻlmaydi. Datlabki geografik obyektlar, masalan, qishloq turlicha atalishi mumkin. Aytaylik, relefiga, suv manbaiga uni oʻzlashtirishga hissa qoʻshgan kishilarning ismlariga, qarab “falonchi qishloq”, “falonchining qishlogʻi” deb yuritilishi mumkin. Bora-bora shu nomlardan biri yutib chiqadi. Masalan, u *nayman urugʻining qishlogʻi* nomini oladi. Bunda chinakam toponimga aylanish jarayoni tugamaganidan toponim butun bir gapdan iborat va ishlatish uchun qoʻpol boʻladi va tilning leksik vositalarini tejash qonuniyatiga koʻra bu toponim nihoyat *Nayman* shaklini oladi. Geografik nom uzoq tarixiy vaqt davomida turdosh ot shaklidagi qiyofasini butunlay oʻzgartirib yuborishi ham mumkin. Masalan, otashparast – zardushtiylarni musulmonlar *mugʻlar* deyishadi. Respublikamiz hududida *Mugʻon, Mugʻxona* kabi toponimlar ana shu otashparastlardan qolgan. *Miq, Miqtepa* singari nomlar ham oʻsha mugʻ soʻzining jonli tildagi inʼikosidir. Yoki *xonaqoh Xonqa, Dizak (diz, sugʻd tilida “qoʻrgʻon”)* *Jizzax, aqba* (arabcha “dovon”) *ovgʻa* shaklini olgan va hokazo [11, 29].

Oʻzbek xalqi turkiy xalqlar ichida koʻp urugʻ, qabilaga boʻlingani bilan ajralib turadi. T.Enazarov etnonimlar haqida fikr yuritib, “Etnonimlar izohi haqida taʼrifni sal mukammallashtirish tarafdorimiz – etnonimlar bu *qabila, urugʻ, aymoq, el, elat va xalq(lar)* nomi hisoblanadi desak, tadqiqotchilarning nazaridan qolib borayotgan *el, elat, aymoq* terminlarini ham eʼtiborga olgan boʻlamiz. Bu terminlarning har biri oʻziga xos maʼnolarga ega”, – deb yozadi.

Turkiy xalqlar uch katta boʻlakka: qorluq-chigil, qipchoq va oʻgʻuz singari katta urugʻlarga boʻlinadi. Dunyodagi barcha turkiy xalqlar mana uch bosh urugʻlardan tarqab, soʻng turli kichik urugʻ va shajaralarga boʻlinib ketadilar. Bizning nisbiy jihatdan oʻzbek xalqi deb atalib qolgan xalqimizning oʻzi yuzlab urugʻ, elat, xalqlardan tarkib topgan boʻlib, ming yillar davomida bir-biriga aralashib, koʻpchilikning qoni qoʻshilib, bugungi avlodlar paydo boʻlgan. Etnonimlar hamda ularning tarixi va taraqqiyoti masalasiga tarixchi olimlar ham eʼtibor berib kelishmoqda. Masalan, Ahmadali Asqarov oʻzining “Oʻzbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi” nomli kitobida xalqimizning kelib chiqish tarixi, ularning oʻz davridagi ahamiyati, bugungi kundagi holatiga eʼtibor qaratgan. Tarixchi olimlardan yana biri boʻlgan Iso Jabborovning “Oʻzbeklar” nomli monografiyasida oʻzbeklarning turli urugʻ, qabilalardan kelib chiqqanligi, anʼanaviy xoʻjaligi, turmush tarzi va etnomadaniyatiga jiddiy toʻxtalgan. Unda mamlakatimizdagi urugʻ-qabilalarning oʻtmishi, ayni vaqtdagi holati masalasiga eʼtibor berilganligi diqqatga sazovordir.

Etnonimlar etnonimika, etnografiya, tarix, tilshunoslikning hali yaxshi oʻrganilmagan sohasi boʻlib, xalqlar, millatlar etnogenezini yanada chuqur tahlil qilishga katta yordam beradi.

Mashhur tilshunos olim Mahmud Qoshgʻariy turk tabaqalari va qabilalarining bayoni xususida fikr yuritib quyidagilarni yozgan: “Turklar aslida yigirma qabiladir. Ular hammasi Nuh paygʻambar oʻgʻli Yofas, Yofas oʻgʻli “Turk”ka borib taqaladilar”.

Mashhur tarixchi Rashiddin – Fazlulloh Qazvinii (Hamadoniy) oʻzining “Jome-at tavorix” asarida 24 urugʻ haqida fikr yuritgan. Buxoro xonligida oʻzbek urugʻlari 32 ta deb hisoblangan. Ulardan asosiysi toʻrtta deyilgan. Keyinchalik uch urugʻ, yeti urugʻ, oʻng va soʻl kabi nomlar yuzaga kelgan.

Tarixiy manbalarda yozilishcha, oʻzbek xalqining shajarasi 92 qabiladan tashkil topgan. Professor Xudoyberdi Doniyorov xalq orasida yigʻilgan oʻzbek urugʻ (etnonim)larini xalq vakillari ogʻzidan yozib olib, roʻyxat qilib, ularning soni 300 dan ortiqligini aniqlagan.

Urugʻlar bir-biridan jiddiy farq qilgan. Har bir urugʻning oʻz tamgʻasi boʻlgan. Oʻsha tamgʻa urugʻining asosiy belgisi hisoblangan. Ayrim urugʻ guruhlari – oʻz nomini tamgʻalari nomi bilan atagan. Masalan, tamgʻasi shakliga qarab urugʻ *bolgʻali, boltali, tugʻli, choʻmichli* deb yuritilgan.

Manbalarda 92 oʻzbek urugʻi bor, deb qayd etilgan. Bundan tashqari har bir guruh, oʻz navbatida, yanada mayda guruhlarga boʻlinib ketadi. Etnograf K.Shoniyozov birgina qoʻngʻirot urugʻi 200 dan ortiq kichik shox-toʻplarga ajralib ketishi toʻgʻrisida maʼlumot beradi.

Mashhur tilshunos olim Xudoyberdi Doniyorov “Oʻzbek xalqining shajara va shevalari” asarida “Qitmir” kitobidan koʻchirilgan “Toʻqson ikki bov oʻzbek urugʻining bayoni” yuzasidan fikr yuritib, aholining qaysi urugʻ va qabilaga mansubligi, urugʻlarning boʻlinishlari yuzasidan oʻz mulohazalarini dalillar asosida yoritgan.

Shunday qilib, oʻzbek millati turli qabila va urugʻlardan tarkib topgan. Oʻzbekistonning turli joylarida *qirq, yuz, ming, qoʻshchi, tuyoqli, qovchin, qangʻli, doʻrmon, yurchi chimboy, mitan* kabi koʻplab urugʻlar bor.

Oʻzbek etnonimlari toʻgʻrisida gap borganda shuni aytishi kerakki, Oʻzbekiston hududida tojik, qozoq, qirgʻiz, qoraqalpoq xalqlarining urugʻ-aymoqlari ham boʻlganidan oʻz-oʻzidan maʼlumki, ana shu

xalqlarning urug‘lari nomlari bilan atalgan joylar ham bor. E.Begmatovning yozishicha, tarixiy va madaniy ahamiyatga molik nomlarga birinchi navbatda quyidagilar kiradi:

1. O‘zbek xalqining urug‘ va qabilalari nomi bilan atalgan joy nomlari, shuningdek, aholining o‘tmish davrlardagi ko‘chishi (migratsiya) jarayonlarini ifoda qiluvchi nomlar: *Do‘rmon*, *Qarluqxon*, *Saroyqishloq*, *Jaloyir*, *Xitoysoy*, *Qipchoqovul*.

2. O‘zbekiston hududida o‘tmishda yashagan va hozirda istiqomat qiluvchi ba‘zi elatlar, xalqlar nomidan yasalgan toponimlar: *Arabovul*, *Arabsoy*, *Arabxon*, *Mo‘g‘ultepa*, *Tojikqishloq*, *Qozoqovul* kabi.

O‘tgan asrning 20-yillarida aholi ro‘yxati natijasida O‘zbekiston aholisining urug‘-qabilalari to‘g‘risida mukammal materiallar to‘plandi. Bu ma‘lumotlar O‘rta Osiyo, jumladan, O‘zbekiston aholisining etnik tarkibi haqida boy faktik materiallar berdi [5, 16].

Etnonimlar asrlar davomida qanchadan qancha tarixiy, madaniy-ma‘naviy, lingvistik meroslarni ajdodlardan avlodlarga yetkazib beruvchi manba hisoblanadi. Shuning uchun ham xalq nomlarini o‘rganib borish har bir davr uchun muhim va ahamiyatlidir.

Tilshunos va etnograf olim X.Doniyorov o‘zbek millatining urug‘ va qabilalarini o‘rganishda asos bo‘luvchi qadimiy manbalarini uch guruhga bo‘lib o‘rganish mumkinligini tasniflab beradi:

Birinchi qismiga turkiy olim va tarixchilari tomonidan yozilgan “Devonu lug‘otit turk”, “Jome-at tavorix”, “Ravzat-us safo”, “Zafarnoma”, “Boburnoma”, “Shajarai turk”, “Shajarai tarokima”, “Tarixi Abulxayrxon”, “Shayboniynoma”, “Abdullanoma”, “Tarixi Muqimxoniy”, “Tarixi Abulfayrxon”, “Tarixi Salotini mang‘itiya” kabi manbalarni kiritish mumkinligini ta‘kidlaydi.

Ikkinchi va uchunchi guruhlarga esa akademik V.V.Bartold, akademik V.V.Radlov, N.A.Aristov, professor N.I.Zarubin, V.V.Grigorev, G‘ozi Olim, A.Y.Yakubovskiy, A.D.Grebenkin, N.V.Xanikov, A.P.Xoroshxin, N.P.Katanov, N.Y.Bichurin, D.N.Logofet, A.Borns, V.M.Vyatkin, L.P.Potopov, I.I.Magidovich, M.G‘.Vahobov, L.V.Oshanin, B.X.Karmisheva, K.Najimov, V.G.Moshkova, B.Ahmedov, K.Shoniyozov kabi rus va sovet olimlari tomonidan yozilgan asarlarni kiritadi [2,14].

XIX asrgacha bo‘lgan davrda etnonimlar masalasining o‘rganilganligini quyidagi manbalar orqali ko‘rib o‘tamiz.

*M.Qoshg‘ariyning “Devoni”*. Ushbu asarda turkiy xalqlarning, xususan, o‘zbek xalqining qabila va urug‘larga bo‘linishi haqida eng dastlabki ma‘lumotlar keltirilgan. Muallifning yozishicha, “Turklar aslida yigirma qabiladir... Har bir qabilaning sanoqsiz allaqancha urug‘lari bor. Men bulardan asosini, ona urug‘larini yozdim. Shaxobchalarini tashladim”. M.Qoshg‘ariy ta‘kidlagan yigirma qabila quyidagilar: beyenek, qipchoq, ug‘uz, yamak, boshg‘irt, basmil, qay, yoboqu, tatar, qirg‘iz, chigil, to‘xsi, yag‘mo, ig‘roq, yoruq, yumul (shumul), uyg‘ur, tangut, tovg‘ach.

M.Qoshg‘ariy “Devonu lug‘otit turk” asarida “ona urug‘lar”dan tashqari yana bir qancha urug‘-qabilalarning (sug‘doq, arg‘u, koniyak, tubut, yaborg‘a, bulg‘or, suvor, qangli, qarluq) ham nomlarini keltiradi va ularning hammasini qo‘shib hisoblaganda, qabilalarning soni 30 taga yaqilashishini aytib o‘tadi.

Muallif bularning ichida shaharda yashovchilar, sahroyilar, sof turkcha gaplashuvchilarni ham ko‘rsatadi. Masalan, sug‘doq, koniyak, arg‘u, tubut, tangut, yaborg‘a kabi qabilalar shaharlarda; yumul, qay, yoboqu, tatar, basmil singari qabilalar esa sahroda yashab ikki tilda gaplashganliklariga urg‘u beradi.

M.Qoshg‘ariy sof turkcha tilda so‘zlovchi qabilalar sifatida qirg‘iz, qipchoq, o‘g‘iz, tuxsi, yag‘mo, chigil, ig‘noq, yorug‘ qabilalarini ko‘rsatadi, lekin joylashish o‘rni haqida to‘xtalmaydi [4, 64].

*Arab manbalari*. Qadimgi arab manbalarida turk xalqlarining turli qavm va qabilalari, xususan, qipchoqlarning etnik urug‘larga bo‘linishlari haqida ko‘pgina ma‘lumotlar berilgan. Qadimgi arab sayyohlari, tarixchilari, yozuvchilar asarlarida turk xalqlarining, xususan, qipchoqlarning qabila va urug‘larga bo‘linishi haqida ma‘lumotlar keltirilgan. N.A.Aristovning [14] yozishicha, qadimgi arab yozuvchilaridan Amir Rukniddin Beybars va Ibn Xoldunlar o‘sha davrda Arabistonda yashagan qipchoqlarning 11 urug‘ga bo‘linishi haqida ma‘lumot beradi. Ular quyidagicha: *To‘qsabo*, *Eta (Seta)*, *Burjo‘g‘li*, *Burli (elbo‘li)*, *Qango‘g‘li*, *Anjo‘g‘li*, *Durut*, *Qarabaro‘g‘li*, *Juznan*, *Qarabirkli*, *Ko‘tan (Kunun)*.

Uning ma‘lumotlariga qaraganda, arablar Arabistondagi turkiy xalqlarning barchasiga qipchoqlar deb qaraganlar. Bu esa yuqorida qipchoqlarning bo‘laklari sifatida sanab o‘tilgan urug‘larni mustaqil urug‘-qabilalar deb tushunishga olib keladi. Misol uchun, *qango‘g‘lini qangli*, *juznanni yuz*, *durutni dulat*, *to‘rtovul yoki do‘rmon* kabi.

Yana shu kabi ma‘lumotlar qadimgi arab sayyohi, o‘z umrini geografiya va tarix ilmiga bag‘ishlagan (kelib chiqishi asli qul bo‘lgan), O‘rta Osiyoda ham sayohat qilgan Yoqut ibn Abdulloning asarlarida ham uchraydi. Lekin ular to‘lig‘icha o‘z tadqiqini topmagan.

*Rashididdin va uning “Jome-at tavorix” asari*. XIV asrda yashab ijod etgan mashhur sharq tarixchisi Rashididdin (asli ismi Fazlulloh Kazviniy)ning “Jome-at tavorix” asari asosida o‘zbek xalqining urug‘ va qabila nomlarining tadqiqida qimmatli ma‘lumotlarga ega bo‘lishimiz mumkin. Asarda 92 elatga bo‘linuvchi

qipchoq o'zbeklarining urug' va qabilalari o'rganilgan. Muallifning olim, tabib, davlat boshlig'i sifatida o'sha davr tarixiy voqealari, jumladan, turkiy xalqning qabila va urug'larga bo'linishini juda yaxshi yoritgan.

Ushbu asar G'arb va Sharq olimlari tomonidan mo'g'ullar deb atab kelingan turkiy qabilalar va urug'larning asli kim ekanligini aniqlashda yordam beradi. Masalan, o'zbek xalqining tarkibida *barlos*, *jaloyir*, *mo'g'ul*, *kenagas*, *qiyon*, *nerun*, *sulduz*, *qiyot*, *qo'ng'iro*t, *boyovut* kabi etnonimlar tarixi chigallashib, qaysi xalq tarixiga borib taqalishini aniqlab bo'lmagan, natijada ko'pchilik urug' nomlari mo'g'ullardan kelib chiqqan degan xulosaga kelingan. Ammo bu fikrning noto'g'ri ekanligi Rashiddinning kitobida o'z isbotini topadi [2, 18]. Muallif *jaloyir*, *sunit*, *tatar*, *merkit*, *qurlavut*, *tulas*, *tumatbulagachin*, *keremuchin*, *urasut*, *tamg'alik*, *torg'ut*, *uyrot (oyrat)*, *bargut (burqut)*, *ko'ri*, *tilingut*, *uryankat*, *kurkan*, *sukayit* kabi qabilalarni "hozirgi vaqtda mo'g'ul deb ataluvchi bu xalqlar ilgari bunday emas edi", - deya yuqoridagi fikrni rad etadi. Tarixchi mo'g'ullar juda kam bo'lganligini ta'kidlab, *nukus*, *uryankat*, *qo'ng'iro*t, *o'rtaut*, *qo'nq'oton*, *orulat*, *kilingut*, *ko'njun*, *ushin*, *sulduz*, *eldurkin*, *boyovut* va *kingit* kabi 18 qabilani mo'g'ullardan kelib chiqqan xalqlar[12] deb sanab o'tadi.

Muallif kitobning birinchi bo'limida o'g'iz va undan tarqalgan 24 qabila haqida to'xtalib, *uyg'ur*, *qipchoq*, *qangli*, *qarluq*, *og'och eri* va *qolach* kabi 6 ta turkiy qabilasining O'g'izga qo'shilgan barcha turkiy qabilalarning birikib ketishi natijasida yuzaga kelganini ta'kidlab, qisqacha izohini ham berib o'tadi.

Shundan keyin muallif asarda ko'rsatilgan qabila va urug'larning kelib chiqishi haqidagi tarixiy ma'lumot va rivoyatlarni qayd qilishga, ularning boshliqlari haqida to'laroq ma'lumot berishga o'tadi. Bular, asosan, quyidagicha:

*Uyg'ur*. Muallifning ko'rsatishicha, O'g'uz o'zining otasi va ayrim og'aynilari bilan musulmonchilikni qabul qilish masalasida janjallashib qoladi. Oradan urush chiqadi. Ana shu urushda ayrim qabilalar o'g'iz bilan birga harakat qiladilar, o'g'iz o'ziga qo'shilgan va qarashgan ana shunday qabilalarni *uyg'ur* deb atagan. "Uyg'ur" so'zi muallifning ko'rsatishicha, asli turkcha bo'lib, u "qo'shilgan", "uyushgan", "uyg'unlashgan" degan ma'nolarni beradi [12].

*Qangli*. O'g'uzga qo'shilgan qabilalardan bir qismi, Rashiddinning ko'rsatishicha, ular aravani birinchi bo'lib kashf qilganlar va shu aravalarda o'ljalarini tashiganlar. Muallif aravani turk (o'zbek) tilida *qangli* deb atalgan deydi va *qangli* qabilasining nomi ana shundan kelib chiqqan, deb tushuntiradi. Professor X. Doniyorovning ma'lumotlariga qaraganda, professor V.V.Reshetov va professor N.A.Baskakov asarlarida *qangli* so'zi xitoycha arava ma'nosidagi "qang-qang" so'zidan kelib chiqqan degan fikr mavjud [2].

*Qipchoq*. O'g'iz itbaroq (etbaroq) qabilasidan yengilib, orqaga chekinayotgan vaqtda eri urushda o'lgan bir xotinni to'lg'oq tutib qoladi. Katta bir daraxtning kovagida ko'zi yoriydi. Buni eshitgan O'g'iz xotinga achinib, bolani o'ziga o'g'illikka oladi va ismini qipchoq deb qo'yadi. Muallifning fikricha, qipchoq so'zi turkcha (o'zbekcha) "qobiq" so'zidan olinib, hamma qipchoqlar shundan tarqalgan emish.

*Qarluq*. Qarluqlarni Rashiddin qorluq (qorli) degan so'zdan kelib chiqqan deb hisoblaydi. Go'yo o'g'iz o'z yurtiga qaytayotgan vaqtda bir qancha oila qorga botib orqada qolib ketgan va shulardan keyincha qorliqlar kelib chiqqan emish.

*Qolach*. O'g'iz Isfahonni olgandan keyin orqaga qaytib kelayotganida bir xotin yo'lda farzand ko'radi. Lekin u xotin och bo'lganligidan uning ko'krigida sut paydo bo'lmaydi. Xotinning eri bir nima topib kelaman deb orqada qoladi va bir amallab qashqirning og'zidan bir tustovuqni olib keladi. O'g'iz uning orqada qolganligidan achchiqlanib, unga qarab sen "qol och" degan, ya'ni "sen och qol" degan emish va shundan keyin undan tarqalgan kishilarning nomlari qolach bo'lib ketgan emish. Bugungi kunga kelib qolach etnonimining tilda ma'lum bir fonetik hodisalarga uchrashi natijasida *xalach* tarzida saqlanib qolgan.

Ko'rinadiki, muallif o'g'iz va undan kelib chiqqan 24 qabila haqida gapirar ekan, *uyg'ur*, *qipchoq*, *qangli*, *qarluq*, *qolach* kabi olti katta turk qabilasining (xalqining) O'g'izga qo'shilgan hamma turkiy qabilalarning birikib ketishi orqasida yuzaga kelganligini qayd qiladi va ular haqida qisqacha tarzda birma-bir to'xtab o'tadi. Ayni vaqtda muallif o'sha urug' va qabilalar nomlarining kelib chiqishi (etimologiyasi) to'g'risida ham har xil fikr va rivoyatlarni aytib o'tadiki, bular qanchalik to'g'ri yoki to'g'ri emasligidan qati'iy nazar kitobning qimmatini tilshunoshlik nuqtayi nazardan oshirish uchun ham xizmat qiladi.

Kitobning ikkinchi bo'limi to'liq ravishda "hozirgi vaqtda mo'g'ul deb nomlangan, lekin qadimda har birining o'z nomi va laqabi bo'lgan, har biri o'z boshlig'iga ega bo'lgan *jaloyir*, *uyrat*, *tatar* kabi qabilalar haqida" deb ataladi. Bular quyidagilardir:

*Jaloyir*. Juda ko'p tarixchilar *jaloyir* qabilasining kelib chiqish jihatidan noto'g'ri ravishda mo'g'ullarga qo'shib sanaydilar. Holbuki, Rashiddin o'z asarida qayta-qayta uqtirib o'tganidek, *jaloyir* qadimgi vaqtlarda u qabila mo'g'ullar birlashmasiga qo'shilgach, uni mo'g'ullar deb atay boshlaganlar. *Jaloyir* qabilasi qadimgi davrda juda ko'p sonli qabilalardan bo'lgan. Chingizxon davrida ham *jaloyirlardan* ko'pgina amir va beklar chiqqan. Muallif bu qabilani quyidagicha 10 bo'lakka bo'lib ko'rsatadi: *jot* (*yot*,



begona), to‘qarovun, qo‘niqsovut, qo‘msovut (qumsovut), uyot (o‘yot), nilkon, qo‘rqin (qo‘rkin), to‘langit, turi, shanqutlar. Asarda jaloyir qabilasining qayerlarda yashaganligi va uning tarixi to‘g‘risida keng ma‘lumot berilgan[12].

*Uyrot.* Uyrotlarning yurti Sakkiz daryo (sekiz muren) tomonda bo‘lgan. Ular birlashib, Kem daryosini tashkil qilgan. qadimgi vaqtlarda shu daryoning bo‘yida tumotlar ham yashagan. Ular qadimdan ko‘p sonli bo‘lgan. Ular Chingizxonga qarshi biroq qarshilik ko‘rsatsalar-da, lekin tezda u bilan yarashib, unga tobe bo‘lganlar.

*Burqut, qo‘ri va tulas (to‘las).* Tumat ham shularning bir bo‘lagi bo‘lib hisoblanadi. Bularning hammasi bir-biriga yaqin qabilalar bo‘lib, ularni umumiy nom bilan barqut deb ham atashgan. Muallifning fikricha, “Barqut” so‘zining asli kelib chiqishi Borgujin to‘qim so‘zidan bo‘lib, daryoning naryog‘i degan ma‘noni bildiradi.

*Nayman.* Bu ham qadimgi va kuchli qabilalardandir. Uning bir qancha tarmoqlari (bo‘laklari) bor. Chingizxon vaqtida naymanlarning boshliqlari Buyruqxon, shuningdek, Tayan va Eniyatlar bo‘lgan. Bundan ko‘rinadiki, nayman nomi ostida qabilalarga birlashgan holda insonlar yashagan [9, 605].

*Alisher Navoiyning “Chor devon”i.* Etnonimlar haqidagi qimmatli ma‘lumotlarni turkiy xalqlarning buyuk mutafakkiri Mir Alisher Navoiyning “Chor devon”ida ham uchratishimiz mumkin. Masalan, Navoiyning:

Ey Navoiy, manga bas ul sanami lo‘livash,  
Bekka qipchoquog‘ar, shahg‘u qiyotu bilgut.

Yoki: Menga tilab husn, vale shoh tilab aslu nasab,

Menga lo‘li bila hindu, anda qo‘ng‘irotu qiyot.

kabi misralarida o‘zbek xalqining *qipchoq, og‘ar, qiyot, bilgut, qo‘ng‘irot* singari urug‘lari haqida ma‘lumot beribgina qolmay, o‘sha davr muhiti, urug‘ va qabilalarning madaniy-ma‘naviy hayotini yoritib beradi [2, 31].

Navoiy she‘rlarining ba‘zi lisoniy xususiyatlari hozirgi Buxoro atrofidagi shevalarga hamda barlos shevalariga o‘xshab ketishidan darak beradi.

*Abulg‘oziy Bahodirxonning “Shajarayi turk” asari.* Muallif asarining kirish qismida turk-mo‘g‘ul xalqlarini ikkita katta bo‘limga bo‘lib, izohlab ko‘rsatadi. Birinchi guruhni turk avlodlari deb aytsa, ikkinchi guruhni mo‘g‘ul avlodlari deb ataydi. Turkiy qabilalarga kiruvchi va turk nomi bilan yuritiluvchi qabilalar, ya‘ni *uyg‘ur, qangli, qipchoq, qalach, qarluq* qabilalari 5 ta avlodni tashkil etishini aytib o‘tadi. Bundan tashqari turkiy qabila va urug‘lardan 19 tasini sanab, har biri haqida birma-bir to‘xtalib o‘tadi.

Ular quyidagilar: 1. *Tekrinlar (mekrinlar)*, 2. *Qirg‘izlar*, 3. *Kemkemchutlar*, 4. *O‘rmonkat*, 5. *Nuguzlar*, 6. *Tatarlar*, 7. *Oyrot (O‘yrat)*, 8. *To‘rg‘ovut*, 9. *Qo‘ri*, 10. *To‘laslar*, 11. *Bulg‘ochin*, 12. *Kermuchinlar*, 13. *Tulengut*, 14. *O‘rasut*, 15. *Kusutmay*, 16. *Nayman*, 17. *Kerayit*, 18. *Ungutlar*, 19. *Turg‘oq*.

“Mo‘g‘ul avlodlari deb ataluvchi” ikkinchi guruhga esa ushbu urug‘ va qabilalarni ko‘rsatib o‘tadi:

1. *Merkit (Mekrit)*. 2. *Qo‘ng‘irot*. 3. *Qoranut*. 4. *Qurlos*. 5. *Elchigin*. 6. *O‘rmovut*. 7. *Ko‘nikmar*. 8. *Arlot (Orlot)*. 9. *Kelkit*. 10. *Bodoy*. 11. *Qishlik*. 12. *Uyshun*. 13. *Suldus (suldus)*. 14. *Eldurkin*. 15. *Kenkit*. 16. *Do‘rban (Do‘rman)*. 17. *Barin*. 18. *Sukut*. 19. *Qurlavut*. 20. *Burqut*. 21. *Uklan*. 22. *Juyrot*. 23. *Hojarot*. 24. *Boyovut*. 25. *Jaloyir*[2, 32].

Muallif “Shajarai tarokima” asarida o‘zbek xalqiga tegishli yoki unga aloqador bo‘lgan urug‘ va qabilalarning 50 dan ortig‘ini sanab o‘tadi.

Abulg‘oziy Bahodirxon asarlari tarix yoki etnografiya sohasi uchungina emas, filologiya uchun ham qimmatli manba. U tariximiz va tilimizni o‘rganish uchun muhimdir. Shuni aytib o‘tish joizki, urug‘ va qabila nomlarini o‘rganish va ularni tarixiy, ma‘naviy xazina sifatida kelajak avlodga yetkazib berish fan va insoniyat uchun birdek muhimdir. Chunki etnonimlarda ajdodlar ruhi, tili va milliy ong tushunchasi yashaydi.

Yuqorida XIX asrgacha bo‘lgan davrda etnonimlar, ularning nomlanish masalalari olimlarimiz nazaridan chetda qolganligiga guvoh bo‘ldik. Chunki qavm va qabila nomlari qadimgi asrlardan tortib to bugungi kungacha o‘rganilishi muhim bo‘lgan soha sifatida tadqiq etilmoqda.

XIX asrdan keyingi davrlarda etnonimlarning ilmiy jihatdan o‘rganilishida salmoqli ishlar amalga oshirildi. Bular qatorida etnonimiya sohasida bir qancha ilmiy izlanishlar olib borgan, turkiy xalq nomlarini ilmiy jihatdan o‘rgangan bir qator rus va Yevropa olimlarini sanab o‘tish mumkin. Masalan, N.Xanikov, L.Z.Budagov, N.N.Muravyov, A.P. Xaroshxin, V.V.Radlov, N.A.Aristov, A. D. Grebenkin, M.N.Galkin, A.Borns, G.Vamberi, D.N. Logofet, K.Bades [14] kabi olimlarni kiritish mumkin. Ushbu sanab o‘tilgan etnonimshunos olimlarning qarashlari xususida to‘xtalib o‘tamiz.

XIX asr tarixiy voqealarini, urug‘ va qabilalarning bo‘linishi va milliy-madaniy xususiyatlarini yoritishda *N.Xanikovning “Buxoro xonligining tavsifi”* [14] kitobi ahamiyatlidir. U Buxoro xonligida



yashagan o'zbeklarning son jihatidan tashqari o'zaro birliklar jihatdan ham boshqaruvchiliklari borligini qayd etadi. Muallif o'zbeklarning urug' va qabilalarga hamda bo'laklarga bo'linishi haqida to'xtalib, o'zbeklarning quyidagicha urug'larga bo'linishini aytib o'tadi: 1. *Mang'it*. Mang'it o'z ichida yana 3 qismga bo'linadi: a) *to'q mang'it*; b) *oq mang'it*; d) *qora mang'it*. 2. *Ming*. 3. *Yuz*. 4. *Qirq*. 5. *O'ng*. 6. *O'ng'ochit*. 7. *Jaloyir*. 8. *Saroy*. 9. *Qo'ng'iro't*. Qo'ng'iro't ham o'z ichida besh qismga bo'linadi: a) qonjag'ali (Xonjig'ali bo'lishi kerak – X.Doniyorov); b) *oinli*; d) *qushtamg'ali* (*qushtamg'ali*); e) *uvoqtamg'ali*; f) *qir*.

Shundan keyin muallif o'zbek urug'larining asosiy ro'yxatini 97 taga yetkazadi va bu urug'lardan 28 tasini Buxoro xonligi hududida tarqalganligi haqida ma'lumot beradi.

*A.Bornsning "Buxoroga sayohat"* asarida ta'kidlanishicha, o'zbek xalqining 32 ta urug'ga bo'linishini eshitib bilganligi to'g'risida ma'lumot beradi va eng muhimlarini sanab o'tadi. 1. *Mang'it – Buxoroda*, 2. *Yuz – Qo'qonda*, 3. *Yuz – Hisorda*, 4. *Lokoy – Hisorda*, 5. *Qo'ng'iro't – Boysunda*, 6. *Qatag'on – Qunduzda*, 7. *Qipchoq – Balxda*, 8. *Yobu – Balxda*, 9. *Ming – Maymanda*, 10. *Qo'g'iro't – Urganchda* uchraydi [14].

Yana bir mashhur sharqshunos etnograf olim Vamberi o'zining "O'rta Osiyo bo'ylab sayohat" kitobida Xiva xonligi hududidagi qabila va urug'lar haqida ma'lumot beradi. Ushbu hududdagi qabila va urug' nomlari keltirib, qaysi hududda qaysi qavm tarqalganligini ko'rsatadi: 1. *Qo'ng'iro't*. 2. *Qipchoqlar*. 3. *Mang'itlar*. 4. *No'kis*. 5. *Nayman*. 6. *Qulam*. 7. *Qiyot*. 8. *Oz (os)*. 9. *Toz*. 10. *Sayyod*. 11. *Jig'atoy*. 12. *Uyg'ur*. 13. *Oybet*. 14. *Do'rman*. 15. *O'shin (Uyshun)*. 16. *Qanjig'ali*. 17. *No'g'ay*. 18. *Bolg'ali*. 19. *Metan (Mitan)*. 20. *Jaloyir*. 21. *Kenagas*. 22. *Qangli*. 23. *Ichkili*. 24. *Bag'urli (Bavurli)*. 25. *Olchin*. 26. *Ochmoyli (Ochamayli)*. 27. *Qoraqursoq*. 28. *Birquloch*. 29. *Tirlish*. 30. *Katta kesar*. 31. *Ming*. Bundan tashqari Zarafshon hududida tarqalgan etnonimlar xususida ham to'xtalib, ularning o'ziga xos xususiyatlarini aytib o'tadi [14].

O'zbek xalqining qabila va qavmlarining tadqiqi xususida rus olimlaridan biri *A.P.Xoroshinning* ham xizmati katta. U "Qitmir" kitobida o'zbek urug'lari ro'yxati keltirib, ularni 92 ta deb ma'lumot beradi. Ammo X.Doniyorov "Bu ro'yxatda ham o'zbek xalqining 92 qabilasi qatoriga kirishi aniq bo'lmagan yoki bo'linishi chalkash bo'lgan har xil mayda bo'laklarga ham ancha ko'p o'rin berilgan", - deb ta'kidlaydi. Ba'zi chalkashliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa-da, Xoroshinning [14] asari tarixiy va etnografik asar sifatida juda ahamiyatlidir.

XIX asrda ushbu sohaga katta hissa qo'shgan mashhur turkolog olim akademik *V.V.Radlovning* xizmatlari beqiyosdir. U tilshunoslik sohasida ko'pgina tadqiqotlar olib borish bilan bir qatorda, turkiy xalqlarning tillarini ularning urug' va qabila tillari bilan bog'lab o'rgandi hamda turkiy xalqlarning etnografiyasi sohasida anchagina ilmiy izlanishlar olib bordi. Olim "Zarafshon vodiysining o'rta oqimi" maqolasida shu hududda yashovchi xalqlarning turmush-tarzi, urug' va qabilalarga bo'linishi, qavm nomlari, ularning yashash joylari to'g'risida batavsil ma'lumot beradi. Uning ko'rsatishicha, *qurama* qabilasi 5 ta urug'ga bo'lingan: 1. *Jaloyir*. 2. *Tilov*. 3. *Toma*. 4. *Jag'alboyli*. 5. *Taroqlilar*. Qurama va quramaliklarning kelib chiqishi xususida gapirib, ular qozoqlar bilan o'zbeklarning aralashuvidan kelib chiqqan degan xulosani beradi. Shuningdek, muallif Qo'qon xonlarining ming qabilasidan kelib chiqqanligi haqida ma'lumot berib, *kenagas*, *mang'it*, *bahrin*, *misit*, *burqut*, *olot*, *botosh*, *qoraqalpoq*, *turkman* kabi urug'larning izohini keltiradi [14]. Akademik *V.V.Radlovning* ushbu xizmatlari etnonimiya uchun qimmatli manbadir.

*N.A.Aristov o'zining "Turkiy qabila va xalqlarning etnik tarkibi bo'yicha mulohazalar va ularning soni to'g'risida ma'lumotlar"* asarida turkiy xalqlar tarixi va etnografiyasini chuqur yoritib bergan [14].

Bulardan tashqari keyinchalik etnonimika bo'yicha *N.N.Mikluxe-Maklaya* nomli etnografiya instituti xodimlari maxsus tadqiqotlar olib borishgan. Masalan, *V.A. Nikonov* mas'ul muharrirligida 1970-yilda nashr etilgan "Etnonim" nomli maqolalar to'plamini misol sifatida keltirish mumkin. Unda yigirma yettita olimning etnonimika doirasida tayyorlangan maqolalari bor. Unda *E.V.Uxmilining* maqolasida makro va mikroetnonimlar to'g'risida fikr yuritilgan [2,26].

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng esa etnonimiyaga munosabat yanada oshib bordi. Endilikda bu nomlar nafaqat lisoniy material, balki xalq tarixi, madaniyati va ma'naviyatining nodir merosi sifatida ham e'zozlanadigan va o'rganiladigan bo'ldi. Natijada o'zbek onomastikasining tadqiqo'nalishlari yanada kengaydi va nufuzi oshdi. O'zbek nomshunosligining paydo bo'lishi va zamonaviy ilmiy soha sifatida shakllanishi bu sohaning o'ziga xos ilmiy terminologiyasining yaratilishi hamda uning rivoji va takomiliga sabab bo'ldi.

Xususiy etnonimika sifatida "O'zbek etnonimikasi" e'tiborga olinishi mumkin. O'zbek etnonimi xususiy etnonimning bir shakli sifatida quyidagi taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tgan:

- 1) o'zbek etnonimi tarixi;
- 2) o'zbek etnonimining bugungi holati.

O'zbek etnonimlarini o'rganish sohasida *I.I.Umnyakov*, *K.Shoniyozov*, *B.Ahmedov*, *A.Asqarov* kabi tarixchi olimlar, *X.Doniyorov*, *S.Qorayev*, *E.Begmatov*, *T.Nafasov*, *N.Oxunov*, *A.Turobov*, *K.Marqayev*, *N.Begaliyev* kabi tilshunos olimlar ayrim ishlarni amalga oshirganlar. Masalan, *K.Shoniyozovning* "K

этнической истории узбекского народа”, “O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni”, B.Ahmedovning “O‘zbek ulusi” kabi asarlari nashr etilgan. Akademik A.Asqarovning “O‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi” nomli asarida ham etnonimlar xususida fikr yuritilgan.

Shuni ta’kidlash joizki, etnonimika sohasida professor X.Doniyorov tadqiqotlari alohida e’tiborga loyiq, olim etnonimlarni 99 urug‘-qabila birlashmasidan shakllanganini ko‘rsatib, o‘zbek urug‘larining tarqalishi va sonini tarixiy manbalar bilan talqin qildi.

A.Otajanova Xorazm etnotoponimlarini o‘rgandi. N.Oxunov esa Farg‘ona etnooykonimlariga doir ilmiy kuzatishlar olib bordi. A.Turobov esa Samarqand viloyatidagi etnooykonimlarga e’tibor qaratdi.

K.Marqayev Janubiy O‘zbekiston hududi materiallari asosida o‘zbek tili etnonimlarining lisoniy tadqiqini amalga oshirdi. Bu nomzodlik ishining birinchi bobi “Etnonimlarning onomastik tizimdagi o‘rni” deb nomlangan. Keyingi bobda etnonimlarning ma’noviy-mavzuiy tasnifi yoritilgan. Eng muhimi, bu qismda hozir iste’moldan chiqqan, tushunarsiz ayrim etnonimlarning etimologik tahlili berilgan. Masalan: *Yobu* – qabila va urug‘ nomi bo‘lib, bu so‘z oddiy jaydari ot ma’nosini bildirgan. O‘zbek dostonlarida “*Yobi dema, shu ot tulpor ekan de*” misralarining qo‘llanilishi ham buning dalilidir. Ot nomi keyinchalik etnos nomiga aylangan.

*Bahrin* – bu so‘z qadimiy turkiy tilda katta yirtqich qush, lochinning bir turi ma’nosini bildirgan, uni qo‘lga o‘rgatilib, ovchilikda foydalanilgan, keyinchalik bu so‘z ham etnos nomi bo‘lib qolgan.

K.Marqayev ishining oxirgi uchinchi bobida etnonimlarning grammatik tuzilishi va yasaliş xususiyati o‘rganilgan. O‘zbek etnonimiyasidagi nomlarning katta qismini tub, sodda etnonimlar tashkil etadi. Shu bilan birga etnonimlar orasida to‘p (*boyto‘p, badalto‘p* kabi), to‘da (*saroyto‘da, beкто‘da* kabi), bachcha (*gulbachcha, jilonbachcha* kabi), tuvg‘on (*qarshidantuvg‘on, devonadantuvg‘on* kabi), tirnoq (*ko‘ktirnoq, oqtirnoq* kabi), bosh (*jortibosh, olmabosh* kabi), o‘g‘il (*besho‘g‘il, ucho‘g‘il* kabi), boy (*bozortuxum, ustatuxum* kabi), kalla (*chorkalla, qorakalla* kabi), qora (*qorakaltak, qorako‘z* kabi), oq (*oqmang‘it, oqtelpak* kabi), besh (*beshbola, beshkal* kabi), yetti (*yettiyuily, yettiurug‘* kabi), uch (*uchqora, uchuruv//uchurug‘* kabi), ola (*olato‘p, olachopon* kabi) singari ikki komponentli, sintaktik usul bilan hosil bo‘lgan etnonimlar ham borligini sanab o‘tadi [6].

Shuni ham qayd etish kerakki, o‘zbek onomastikasida etnonimik lug‘atlarning namunasi yaratilgan: “Turon qavmlari. Kichik ensiklopedik lug‘at” (Zoyir Ziyotov, – Toshkent: Istiqlol, 2008.) Bu lug‘atda etnonimlar – urug‘, qabila, xalq, millat nomlari izohlangan. Bu asarning har bir bobida qavmlar nomlari keltirilgach, respublikamiz hududida shu kunlarda mavjud bo‘lgan u yoki bu qavm bilan bog‘liq joy nomlari ham ilova qilingan. Bu esa aholi yashash joylari etnografiyasi va toponimikasini o‘rganishda muayyan ahamiyat kasb etadi. B.Yo‘ldoshev fikricha, bu kitob turkiy xalqlar, elatlar, qavmlar yoki urug‘lar haqida qisqacha ma’lumotga ega bo‘lish uchun ko‘pgina adabiyotlarni varaqlab chiqish mashaqqatidan o‘quvchini qutqaradi [2, 32].

**Xulosa.** Umuman olganda, turkiy tillardagi, jumladan, O‘zbekistonning barcha hududlaridagi etnonimik boylikni atroflicha to‘plash va tadqiq qilish faqat tilshunoslik fani uchun emas, balki xalq tarixi, etnografiyasi, madaniyati va ma’naviyati uchun katta ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi, chunki etnonimlar orqali xalqning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, etimologik, lingvistik va boshqa ko‘pgina xususiyatlari namoyon bo‘ladi. Ularda davr muhiti aks etib, keyinchalik axborot tashishga xizmat qiluvchi ma’naviy merosga aylanib boradi. Etnonimlarni tadqiq qilish o‘zbek tilining kelib chiqishini, shakllanish tarixini, o‘zbek tilida uzoq tarix davomida yuzaga kelgan o‘zgarishlarni, undagi integratsiya (qo‘shilish) va differentsiya (ajralish) jarayonlarini o‘rganishga zamin yaratadi. O‘zbek adabiy tili hamda o‘zbek milliy tili rivojiga qaysi qabila yoki urug‘ tili qanday hissa qo‘shganligi va o‘zbek xalqining boshqa qardosh xalqlar bilan o‘zaro aloqalari haqida ma’lumot tashiydi. Etnonimlar nafaqat tilshunoslik, balki tarixshunoslik, etnografiya va arxeologiya uchun ham ulkan material beradi. Shu bilan birgalikda, bugungi kunda ham etnonimlar va ular asosida shakllanayotgan onomastik birliklarni o‘rganish, shaklan o‘zgarib, yo‘qolib borayotgan nomlarni qayta tiklash, bu orqali tariximizning unutilishini oldini olish kabi ishlar amalga oshirilmoqda.


#### ADABIYOTLAR:

1. *Абулғозий Баҳодирхон Шажарайи турк. –Т.: Чўлпон, 1992. –Б.32.*
2. *Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. –Т.: Фан, 1968. –Б.31.*
3. *Kilichev B.E., A way of making words on proper nouns. International Journal on Integrated Education Volume 3, Issue II, Feb 2020. p. 96-98; Kilichev B.E., Safarova M.Z., Bukhara region’s typical toponyms transformed by means the names of nations. International Scientific Journal Theoretical & Applied Science. Philadelphia, USA. 2021 02 94; Kilichev B.E., Safarova M.Z., Toponyms Formed On The Basis Of Nation Names. International Journals of Sciences and High Technologies. Vol. 25 No. 1 February*

2021, pp. 104-107; Kilichev B.E., *Lingvoculturological characteristics of anthroponyms used in artistic works. ResearchJet Journal of Analysis and Inventions. Volume 2, Issue 5 May, 2021*; Kilichev B.E., Bafoyeva N., *Some characteristics of onomastic units in Abdullah Qodiriy's novel "Bygone days". Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. ISSN: 2249-7315 Vol. 12, Issue 01, January 2022*;

4. Кошгарий М., *Девону луготит турк, Итом, Тошкент, 1960.*
5. Мадрахимова Д. *Наманган вилояти этноним ва этнопонимларининг лисоний тадқиқи. – Н., 2016. – Б.16.*
6. Марқаев К.Ш. *Ўзбек тили этнонимларининг лисоний тадқиқи: филол. фанл. номз. дисс. – Т., 2007. – Б.72-76.*
7. Отажонова А. *Хоразм этнопонимлари ва уларнинг лугавий асослари: филол. фанл. номз. дисс. автореф. – Т., 1997. – 24б.*
8. *Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 5 жилд. 1-жилд. – Т.: ЎзМЭ, 2006. – 672 б.*
9. *Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 12-жилдлик. 8-жилд. – Т., 2000. – 605 б.*
10. Qorayev S. *Etnonimika. – Tashkent, "O'zbekiston", 1979.*
11. Qorayev S. *Toronimika. Tashkent — 2006.*
12. Рашид-ад-дин, *Сборник летописей, том I, кн. М. – Л., 1952.*
13. Safarova M. Z., Kilichev B. E., *The Concept of Totemism and Ethnonym. Central asian journal of literature, philosophy and culture. – 2022. – Т. 3. – №. 5. – С. 121-124*; Safarova M. Z., *Alisher Navoiy ijodida etnonimlarning qo'llanilishi. Научно-практическая конференция. – Вихоро. 2021.*
14. Хаников Н., *Описание Бухарского ханства, СПб., 1843*; Борнс А., *Путешествие в Бухару, III, М., 1849*; Вамбери, *Путешествие по Средней Азии, СПб., 1865*; Гребенкин А. Д., *Узбеки, Сб. "Русский Туркестан", вып. 2, М., 1872*; Хорошихин А. П., *Сборник статей, касающихся до Туркестанского края, СПб., 1876. 495-497*; Радлов В., *Этнографический обзор тюркских племен Южной Сибири и Джунгарии, Томск, 1887*; Аристов Н. А., *Заметки об этническом составе тюркских племен и народностей..., СПб., 1897, стр. 150-151*; Логофет Д. Н., *Бухарское ханство под русским протекторатом, СПб., 1911, стр. 155.*
15. <https://slovar.wikireading.ru/3704191>





**"SCIENTIFIC REPORTS  
OF BUKHARA STATE  
UNIVERSITY"**

The journal was composed  
in the Editorial and  
Publishing Department of  
Bukhara State University.

**Editorial address:**

Bukhara, 200117  
Bukhara state university, main  
building, 2<sup>nd</sup> floor, room 219.  
Editorial and Publishing  
Department.  
[https://buxdu.uz/32-buxoro-  
davlat-universiteti-ilmiy-  
axboroti/131/131-buxoro-davlat-  
universiteti-ilmiy-axboroti/](https://buxdu.uz/32-buxoro-davlat-universiteti-ilmiy-axboroti/131/131-buxoro-davlat-universiteti-ilmiy-axboroti/)  
e-mail:  
nashriyot\_buxdu@buxdu.uz

Printing was permitted  
29.10.2022 y. Paper format  
60x84,1/8. Printed in express  
printing method. Conditional  
printing plate – 35,30.  
Circulation 70. Order №647.  
Price is negotiable.  
Published in the printing house  
"Sadridin Salim Buxoriy" LLC  
Address: Bukhara,  
M.Ikbol street, 11